

BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHIDA MUSIQA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH FUNKSIYALARI

*Sabirdjanova Dilnozaxon Zafar qizi, Xalqaro Nordik universiteti
tayanch doktoranti*

FUNCTIONS OF IMPROVING MUSIC TEACHING METHODOLOGY IN UNDERGRADUATE EDUCATION

*Sabirdzhanova Dilnoza Zafar qizi, a doctoral student at the
International Nordic University*

ФУНКЦИИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ МУЗЫКИ В БАКАЛАВРИАТЕ

*Сабирджанова Дилнозахон Зафар кызы, докторант
Международного университета Нордик*



<https://orcid.org/0009-0008-3406-3065>

e-mail:

dinasabirdjanova@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada musiqa ta'limi bakalavriyat ta'lim yo'nalishida musiqiy-nazariy fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan metodik ta'minot funksiyalari tahlili muhokama etilgan. Bundan tashqari nazariy bilimlar asosida bakalavriyat ta'lim yo'nalishida musiqiy-nazariy fanlarning shakl va metodlarini yangi innovatsion texnologiyalar orqali amaliyotga joriy qilish masalalari ko'rib chiqilgan.

Tayanch so'zlar: musiqa, ta'lim, tarbiya, faoliyat, kasbiy faoliyat, metodik tayyorgarlik, funktsiya, metodika, uslub.

Abstract: This article discusses the analysis of the functions of methodological support used in teaching music-theoretical subjects in the undergraduate music education program. In addition, the issues of implementing the forms and methods of music-theoretical subjects in the undergraduate music education program through new innovative technologies based on theoretical knowledge are considered.

Key words: music, education, upbringing, activity, professional activity, methodological preparation, function, methodology, style.

Аннотация: В статье рассматривается анализ функций методической поддержки, используемых при преподавании предметов теории музыки в программе бакалавриата по музыкальному образованию. Кроме того, были рассмотрены вопросы внедрения форм и методов музыкально-теоретических дисциплин в практику посредством новых инновационных технологий в образовательную программу бакалавриата на основе теоретических знаний.

Ключевые слова: музыка, образование, воспитание, деятельность, профессиональная деятельность, методическая подготовка, функция, методика, стиль.

KIRISH. Ilmiy tadqiqotimizning maqsadi va mazmuni, birinchi navbatda, ijtimoiy buyurtma sifatida, pedagogik nazariya va uning amaliyot ehtiyojlari bilan belgilanib va ularning o'ziga xos ifoda shakli bo'lib xizmat qiladi. Bakalavriyat ta'lim bosqichining musiqa ta'limi yo'nalishida musiqa

o'qitishda metodik tayyorgarlikning maqsadli uslubi – bo'lajak musiqa o'qituvchisining metodik madaniyati va uning asoslari, amaliy hamda kasbiy malakalari hisoblanib, bakalavriyat ta'limi yo'nalishi bazasida o'qitilayotgan musiqiy-nazariy fanlarni o'qitishning usul, metod va shakl vositalarini

o'rgatishning yangicha innovatsion texnologiyalaridan keng foydalanishdan iboratdir. Bugungi globallashuv, raqamli texnologiyalarning jamiyat hayotida kirib kelishi bo'lajak mutaxassislarining ijodiy rivojlanishi, kasbiy tayyorgarligini muntazam oshirib borishi, zamon, jamiyat talabi bilan hamnafas holda o'z faoliyatini olib borishi uchun maqbul bo'lgan shart-sharoitlarni yaratib, ularda kasbga yo'naltirilgan tanqidiy-uslubiy fikrlash darajasini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan zamonaviy oliy musiqa pedagogikasi ta'limning eng muhim funksiyalarini o'zida aks ettiradi.

Musiqa pedagogikasi oliy ta'limning yaxlit tuzilishi va unda o'qitilayotgan ta'lim dasturlarini o'zlashtirish jarayonida metodik tayyorgarlik eng muhim tarkibiy qismlardan biri bo'lib, ular bir qator o'ziga xos funksiyalarni bajaradigan dinamik tizimdan iboratdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Musiqa ta'limida tahsil oluvchi bo'lajak musiqa o'qituvchilarining ijodiy-kasbiy va metodik tafakkurini rivojlantirish – tadqiqot ishimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi. Mahalliy olimlardan Q.Panjiyevning ilmiy tadqiqotlarida “Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi bilan bir qatorda metodik tayyorgarligi muhim ahamiyat kasb etadi, bo'lajak o'qituvchi o'zida mavjud samarali musiqiy g'oyalarni ilgari surish orqali o'zining ilmiy-nazariy va metodik strategiyasini ilgari surishi hamda ilmiy-nazariy usullar sintezini rag'batlantirish orqali kuchli evristik qobiliyatini takomillashtirishi lozim”, deydi.

Oliy ta'lim tizimidagi pedagogika sohasida yetishib chiqayotgan musiqa o'qituvchilarining musiqiy, kasbiy-uslubiy madaniyatini takomillashtirishning bir qator vazifalari va shartlarini olib borayotgan tadqiqot jarayonida aniqlashga harakat qildik. To'g'ri, bu kabi holatlar MDH olimlari tomonidan bir qator o'rganilgan. Shunday bo'lsa-da, V.A.Slastenin tomonidan musiqa o'qitishda refleksivlikning kuchayishi bilan bog'lash jarayonlarini kuzatdik. Biz tomonimizdan amalga oshirilgan tadqiqot mazmunida esa, bu kabi jarayonlar talabalarga ularning kognitiv va amaliy harakatlarining mantig'i va vositalarini tushunishga yordam beradi[4].

Oliy ta'limning pedagogika sohasi musiqa pedagogikasi ta'limi tizimida uslubiy tayyorgarlikning evristik funksiyasining vizual

namoyon bo'lishi, uning mazmunini asoslash, bo'lajak musiqa o'qituvchisining tafakkurini takomillashtirishdir. XXI asr boshqa sohalarida bo'lgani kabi musiqa ta'limi uchun o'zining zamonaviy ilmiy izlanishlari fonida katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. Bu borada MDH olimlari (V.N.Rostorguev, B.C.Shubinskiy) qatorida mahalliy olimlar (N.Kiyamov, Q.Panjiyev, Sh.Mustafoev)ning tadqiqotlarida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida nafaqat musiqiy-nazariy fanlardan egallagan bilimlarini, balki ma'lum bir metodik sohadagi nazariy, kasbiy-ijrochilik yoki uslubiy farazlar, amaliy farazlar, tushuncha va g'oyalarni shaxsiy darajasida ilmiy asoslashni ta'minlaydigan bunday munosabat, bilim va qobiliyatlarni rivojlantirish bilan bog'liq. Ilmiy ishimiz tomonimizdan amalga oshirilgan tadqiqot mazmuni va jarayoni xuddi shunday fikrlashni rivojlantirishga, musiqa pedagogikasi sohasidagi ta'lim muammolariga yechim sifatida metodik yondashuvning ijtimoiy obro'sini tiklashga qaratilgan[2].

TAQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu maqolani yozishda analiz, sintez, tarixiylik va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanilgan. Mahalliy olimlardan Q.Panjiyevning tadqiqot mavzusi yuzasidan olib borgan ishlari va g'oyalari o'rganildi. MDH olimlaridan A.Slastenin va boshqa olimlarining fikrlari tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR. Bakalavriat talabalarining metodik va eng muhim funksional tayyorgarligining ahamiyati, uning bo'lajak musiqa o'qituvchisi shaxsining yaxlit rivojlanishiga, kognitiv, motivatsion-qiyamat, intellektual va faoliyat komponentlari ta'sir kuchidir. Aynan metodik tayyorgarlik jarayonida, turli ilmiy sohalar vakillari ta'kidlaganidek, mutaxassisning tafakkuri va faoliyat uslubi jadal qayta tiklanadi, uning ijodiy salohiyati boyitiladi [3].

Oliy musiqa pedagogik ta'limning umumiy musiqiy-nazariy fanlar tizimida birinchi navbatda metodik tayyorgarlikdagi kognitiv funksiyasini bajaradi, chunki u bo'lajak musiqa o'qituvchilari tomonidan fan va musiqa san'atining turli sohalaridagi bilimlarni faol o'zlashtirishga hamda ularni o'rganish va o'rgatishning turli texnologik usullarini bilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, ularning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy qadriyatlarini anglashga yordam beradi. Bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabasi tomonidan o'zlashtirilgan nazariy

va amaliy bilimlar asosida bo'lajak mutaxassis sifatida musiqiy pedagogik voqelikni bilish va o'zgartirishning zarur usullarini o'rganadilar, ulardan o'z amaliyotida ijodiy foydalanish tajribasiga ega bo'ladilar.

Bakalavriat talabalarining metodik tayyorgarligi nafaqat fan va musiqa san'atining turli sohalarida (musiqiy, musiqiy-nazariy, kasbiy, pedagogik bilim, ko'nikma va malakaviy kompetensiyalarni axloqiy, hissiy-irodaviy, musiqashunoslik, musiqiy ijrochilik tajribalari va amaliyoti) bo'lajak mutaxassis o'qituvchilar tajribasida mavjud bo'lgan bilimlarni faollashtirishni, balki ushbu bilimlarning mohiyatini izchil tushunishni, ularning didaktik, tizimli va yaxlit yondashuvini amalga oshirishdagi hal qiluvchi rolini ta'minlaydi. Talabalarining tegishli kasbiy-metodik ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni o'zlari o'rganishlari hamda turli darajadagi (pedagogik, kasbiy, metodik, umumiy ilmiy, xususiy ilmiy) kasbiy yo'naltirilgan uslubiy-metodik bilimlarni o'zlashtirishlari va egallashlari bo'lajak musiqa o'qituvchilarining musiqa pedagogikasi ta'limi jarayonining maktab ta'limi va tarbiyasining boshqa jihatlarini, umuman ijtimoiy-madaniy konsert ijrochiligi amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan ko'p tomonlama, didaktik aloqalari haqidagi g'oyalarni sintez qiladi va undagi tajribalarni aniqlashtiradi. Metodik tayyorgarlik bo'lajak musiqa o'qituvchilarini o'qitishda bunday yondashuvga yo'naltirgan musiqiy-nazariy dars mashg'ulotlaridagi ba'zi empirik faktlar va hodisalar nafaqat metodik, balki uslubiy kontekstda ham, ya'ni musiqa pedagogik jarayonining umumiy qonuniyatlari, uning dolzarb ilmiy va nazariy asoslari prizmasi orqali namoyon bo'ladi.

Bo'lajak musiqa pedagogi sifatida talabalar musiqashunos, etnomusiqashunos, pedagog nuqtayi nazardan qaraganda metodik (uslubiy) tayyorgarlikning bevosita ta'siri ostida musiqiy va kasbiy bilim, ko'nikma va ijrochilik qobiliyatlarini puxta o'zlashtirishlari, o'zini o'zi baholash, qayta baholash lozim bo'ladi. Shuning uchun ham ko'pincha ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan musiqa o'qituvchilar orasida funksional-pragmatik yondashuv yuzaga kelayotgan, shaxsiy va ijodiy yondashuvlarga yo'l ochadi. Bunday holda, musiqa asarlarini tahlil qilish va ijro etish barobarida badiiy-majoziy tasvirlar bilan ishlash qobiliyati aynan biz muhokama etayotgan bo'lajak musiqa

o'qituvchisi tomonidan kengroq yondashuvlarda tan olinadi. Bo'lajak musiqa o'quvchilari bilan ma'naviy va shaxsiy aloqani o'rnatishning ajralmas sharti sifatida, ularning badiiy, kasbiy, musiqiy ijrochilik, metodik-uslubiy va ijtimoiy tajribasini boyitishning eng muhim vositasi hisoblanadi [5].

Metodik tayyorgarlik jarayonida bo'lajak mutaxassislar turli darajadagi, uslubiy bilimlarga murojaat qilish, birinchi navbatda, musiqiy va pedagogik amaliyotning ehtiyojlari, unda nafaqat maxsus, balki psixologik, musiqashunoslik, estetik va boshqa muammolarning juda murakkab kombinatsiyasi bilan tartibga solinadi. Musiqa ta'limi bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarining metodik tayyorgarligi jarayonida davom etadigan va unga erishiladigan musiqa ta'limi va pedagogikasining nazariy va uslubiy muammolarini ko'p darajali, konseptual tushunishlari bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy-metodik va kognitiv qiziqishlarini sezilarli darajada kengaytirishga yordam beradi. Ularda fan, ta'lim va musiqa san'atining turli sohalaridan yangi bilimlarni muntazam ravishda to'plashning pedagogik zaruriyatini ta'minlaydi.

Musiqiy-nazariy fanlarni o'qitishda metodik tayyorgarlik oliy ta'lim tiizmida pedagogik sohasi bo'lajak musiqa o'qituvchisini o'qitishda bugungi axborot asridagi yangiliklardan xabardor bo'lish, uni o'quv tizimida qo'llash bo'yicha talabalarni tarbiyalashning yaxlit jarayoni tabiatiga sezilarli darajada o'zgarishlarni ta'minlaydi. Mazkur jarayonni reproduktiv darajadan didaktik, kasbiy-ijodiy va metodik darajaga o'tkazadi. Bu uslubiy tayyorgarlikning yana bir muhim vazifasi – evristik xususiyatlarini ta'minlashga pedagogik shart-sharoitlarni yaratib beradi[2].

XULOSA. Shunday ekan, bo'lajak musiqa o'qituvchilarining musiqiy-nazariy fanlarni o'zlashtirish, o'qitish va o'rgatishdagi metodik tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida tahlil etib kelinayotgan musiqa o'qitishning metodik tayyorgarlik funksiyasi – pedagogik usullarni va shakllarni tanlashga sezilarli ta'sir ko'rsatishi, bo'lajak musiqa o'qituvchilariga ijodiy muloqot olib borish uchun sharoit yaratadigan vositalardan foydalanish zarurligini belgilaydi. Talabalarda metodik tayyorgarlik nafaqat bo'lajak musiqa o'qituvchisini uslubiy bilimlar, balki ularni qo'llashning ijodiy tajribasi bilan qurollantirish vazifasini, balki musiqa

pedagogikasi ta'limida voqelikni bilish va o'zgartirishda ma'lum bir qiymat munosabatini shakllantirishni ham o'z ichiga oldi. Ushbu tayyorgarlikning bo'lajak mutaxassisning ongi va faoliyatining axloqiy va qiymat jihatlariga ta'siri uning aksiologik funksiyani bajarishini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, uning mohiyati shundan iboratki, uslubiy tayyorgarlikning mazmuni talabalar uchun nafaqat musiqiy-nazariy fanlarni, balki pedagogik voqelikning turli hodisalari va jarayonlarini uslubiy aks ettirish manbai bo'lib, ularning kasbiy metodik va ijodiy faoliyatining ushbu jihatiga shaxsiy qiymat munosabatini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi[3].

Shuningdek, musiqa ta'limi yo'nalishlari talabalari metodik tayyorgarligining takomillashib borishiga yordam beradi. Unda o'ziga yaqin bo'lgan musiqa o'qitish metodikasi va texnologiyalarining boshqa tomonlarini bo'lajak o'qituvchilar tomonidan kashf etishga erishiladi. Bunday hollarda, nazariy g'oyalar va metodik kashfiyotlarning birlashishi bo'lajak musiqa o'qituvchilarining o'zlarini ham kasbiy, ham metodik, ham ijodiy, ham axloqiy, madaniy mezonlar va ehtiyojlarni o'zida rivojlantirishga foydali ta'sir ko'rsatadi. Uslubiy

bilimlarning qadriyat tomonini anglash bo'lajak mutaxassislarga kengroq ijtimoiy-madaniy va musiqiy-pedagogik tajriba kontekstida hayot va kasbiy tajribani tushunishga, u bilan bog'liqligini va uni bilish istagini his qilishga imkon beradi[4].

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Panjiyev Q.B. Musiqa o'qitish metodikasi. Darslik. Toshkent 2023. 306 b.
2. Panjiyev Q.B. O'zbek xalq qo'shiqlari vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Monografiya. 2022, 202 b.
3. Ibrohimjonova G.A., Yuldashev U.Yu. Musiqa nazariyasi. Darslik. Toshkent, 2017.
4. Абдуллин Е.Б. Теория и практика музыкального обучения в общеобразовательной школе. М., 1983.
5. Ibrohimov O.A. "O'zbek xalq musiqa ijodi" (metodik tavsiyalar 1-qism), Toshkent. 1994-y. B.62.
6. Карабаев У. Этнокультура (Традиционная народная культура): Учеб. пособие, Шарк. 2005. Ст. - 240.

